

JAHON BANKINING O‘ZBEKISTONDAGI DASTURI SHARHI

2024-yil oktabr

MAMLAKAT KONTEKSTI

| O‘zbekiston | 2023 |
|--|--------|
| Aholi soni (mln kishi) | 36.4 |
| YaIM (joriy narxlarda, mlrd AQSH dollari) | 101.6 |
| Aholi jon boshiga YaIM (joriy narxlarda, AQSH dollari) | 2788.9 |
| Tug‘ilganda kutilayotgan o‘rtacha umr davomiyligi (yillar) | 71.7 |

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati qator progressiv islohotlarni amalga oshirdi. Ular iqtisodiyotni liberallashtirish va xususiy sektorni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilashni o‘z ichiga oladi. 2017-yildan buyon YaIMning o‘rtacha o‘sishi 5,3 foizni tashkil etgan holda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha jahon yetakchilaridan biriga aylandi. Bu milliy iqtisodiyotning daromadi o‘rtachadan past bo‘lgan ko‘plab mamlakatlardagi o‘sishni ortda qoldirgan yuqori o‘sish sur‘atlariga erishishga yordam berdi.

Biroq, so‘nggi besh yilda yangi ish o‘rinlarini yaratish sur‘ati past bo‘lib, o‘rtacha atigi 1,1 foizni tashkil etdi. Bu jarayonni jadallashtirish talab etiladi, chunki xuddi shu davrda aholining o‘sishi o‘rtacha 2 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, prognozlarga ko‘ra, mehnatga layoqatli aholi sonining yillik sof o‘sishi 250 ming kishini tashkil etadi.

Ko‘proq ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradigan barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish uchun O‘zbekiston islohotlarni davom ettirishi kerak. Ular davlatning iqtisodiyotdagi rolini yanada qisqartirishga, asosiy tarmoqlarni liberallashtirishga hamda tashqi savdo

hajmini oshirish, biznes yuritish va investitsiyalarni jalb qilish muhitini yaxshilashga qaratilishi kerak. Tez rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan fuqarolarning kasbiy malakalarini oshirish ham davlat sarmoyalarini kiritish kerak bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

2023-yilda O‘zbekiston 2030-yilgacha bo‘lgan Milliy taraqqiyot strategiyasini ("O‘zbekiston-2030") qabul qildi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri – joriy o‘n yillik oxiriga kelib daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kirish. Mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga fuqarolar uchun rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash, atrof-muhit va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, shuningdek, insonlar ehtiyojlariga yo‘naltirilgan davlat xizmatlarini rivojlantirish kiradi.

Jahon banki guruhi O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadlariga erishishiga ko‘maklashish uchun hukumat bilan yaqin hamkorligini davom ettirmoqda.

JAHON BANKNING O‘ZBEKISTONDAGI FAOLIYATI

| Jahon banki portfeli | |
|--------------------------------------|-----------------------|
| Amalga oshirilayotgan loyihalar soni | 24 |
| Qarzlar | 4,7 mlrd AQSh dollari |
| XTTB | 1,3 mlrd AQSh dollari |
| XTA | 3,4 mlrd AQSh dollari |

2022-yil may oyida Jahon banki Ijroiya direktorlar kengashi [Jahon Banki guruhi \(JBG\) va O‘zbekiston o‘rtasidagi yangi Hamkorlik dasturini \(HD\) tasdiqladi](#). Hujjatda Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida kelgusi besh yil ichida Bank tomonidan hukumatga moliyaviy va tahliliy yordam ko‘rsatish rejalari bayon etilgan.

HD O‘zbekistonga inklyuziv va barqaror bozor iqtisodiyotiga o‘tishda ko‘maklashishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilaydi: 1) xususiy sektorda ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish; 2) inson kapitalini rivojlantirish (tibbiyot, ta‘lim, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va boshqalar); shuningdek, 3) fuqarolar farovonligi va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish maqsadida iqtisodiy o‘sishning yanada ekologik modelini joriy etish.

HD shuningdek, mamlakat rasmiylarining gender tengsizlikni bartaraf etish, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini rag‘batlantirish, davlat organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini oshirish borasidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

2017-yildan boshlab Jahon banki tomonidan O‘zbekistonni moliyaviy va tahliliy qo‘llab-quvvatlash hajmi sezilarli darajada oshdi. Ularning maqsadi bozor islohotlari va makroiqtisodiy islohotlarning kompleks dasturini amalga oshirishda hukumatga ko‘maklashishdir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi uchinchi yirik mijozi hisoblanadi. O‘zbekiston, shuningdek, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (JBG tarkibiga kiradi) tomonidan mintaqadagi eng yirik imtiyozli moliyalashtiriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, Jahon bankining O‘zbekistondagi dasturi umumiy qiymati 4,7 milliard AQSH dollariga yaqin bo‘lgan 24 ta amalga oshirilayotgan loyihadan iborat. Ushbu loyihalar Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasining (XTA) 3,4 milliard dollarlik imtiyozli kreditlari (bu Bank tomonidan mamlakatga berilgan barcha moliyalashtirishning 70 foizidan ortig‘ini tashkil qiladi) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) ning 1,3 milliard dollarlik qarzlari (XTA va XTTB JBG tarkibiga kiradi) hisobidan moliyalashtirilmogda.

Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan yuqoridagi loyihalar kerakli makroiqtisodiy islohotlarni joriy qilish va muhim iqtisodiy sektorlarni modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, ushbu loyihalar qishloq xo‘jaligi, suv va yer resurslarini boshqarishni takomillashtirish, suv ta‘minoti va sanitariya, irrigatsiya, energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tarmoqlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, ular shahar va qishloq infratuzilmasini, milliy innovatsion tizimni, soliq, statistika, moliya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy institutlar faoliyatini takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Jahon bankining O'zbekistondagi loyihalari portfeli hukumatga taqdim etiladigan maslahat-tahliliy xizmatlar dasturi bilan to'ldiriladi. Uning doirasida bank kambag'allikni qisqartirish, sog'liqni saqlash, ta'lim va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

tizimlarini rivojlantirish sohasidagi milliy strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga hissa qo'shadi. Shuningdek, energetika, aviatsiya, soliq va bank tizimlarini isloh qilishga, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishiga texnik ko'mak ko'rsatilmoqda.

O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY VAZIYAT

Iqtisodiyotdagi oxirgi o'zgarishlar

2024-yilning birinchi yarmida O'zbekistonning real YalM 6,4 foizga o'sdi, 2023-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 6,2 foiz bo'lgan. Ushbu o'sishga investitsiyalar va xususiylar iste'mol yordam berdi.

2024-yilning birinchi yarmida real iste'molning o'sishi 6,8 foizgacha tezlashdi. Bunga ish haqining oshishi va pul o'tkazmalarining o'sishi yordam berdi. Real investitsiyalar 36,6 foizga oshdi va ushbu investitsiyalar umumiy hajmining 29 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keldi.

2024-yilning birinchi yarmida eksport (AQSH dollarida nominal ifodada) 5,5 foizgacha o'sdi, avvalgi yilda bu ko'rsatkich 24,7 foiz bo'lgan. Xizmatlar, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari eksporti o'sishda yetakchilardan bo'ldi. Oltin, to'qimachilik mahsulotlari va mashinalar eksporti biroz qisqardi. 2024-yilning birinchi yarmida import 11 foizga oshdi, bu tabiiy gaz, mashina va uskunalar, shuningdek, oraliq sanoat tovarlari importining o'sishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2024-yilning birinchi yarmida O'zbekiston YalMning 1 foizi miqdorida joriy operatsiyalar hisobining profitsitini qayd etdi, chunki pul o'tkazmalari oqimi 2023-yildagi YalMning 13 foiziga nisbatan YalMning 14 foizigacha o'sdi. Bu

birinchi yarim yillikda YalMning 13 foizi miqdoridagi savdo balansi taqchilligini qoplash imkonini berdi.

2024-yil 31-avgust holatiga ko'ra, O'zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari 2023-yilning avgustiga nisbatan 6,5 milliard dollarga ko'payib, 39,2 milliard AQSH dollariga yetdi. Ushbu miqdor to'qqiz oy davomida importni qoplash imkonini beradi.

2024-yilning birinchi yarmida budget daromadlarining YalMdagi ulushi 30 foizni, xarajatlari esa 35,9 foizni tashkil etdi. Natijada budget 5,9 foiz kamomad bilan ijro etildi, bu 2023-yilning birinchi yarim yilligidagi ko'rsatkichga (5,7 foiz) nisbatan yuqori.

Iste'mol inflatsiyasining eng yuqori cho'qqisi 2024-yilning iyun oyiga to'g'ri keldi va 10,6 foizni tashkil etdi. Bu asosan energiya tariflarining oshishi bilan bog'liq bo'ldi. Biroq, shundan keyin iyul va avgust oylarida inflyatsiya 10,5 foizgacha sekinlashdi. Shu bilan birga, oziq-ovqat inflyatsiyasi rekord darajada sekinlashdi va iyul oyida 2,9 foiz bo'ldi.

2023-yilda o'rtacha real ish haqining 7,2 foizga o'sishi kambag'allik darajasini 2022-yildagi 17,3 foizdan 2023-yilda 16,9 foizgacha kamaytirishga yordam berdi (daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun kuniga 6,85 dollarga mos kambag'allik chizig'iga ko'ra).

Iqtisodiy rivojlanish istiqbollari

O'zbekistonda 2024-yilda iqtisodiyotning 6,0 foiz darajada o'sishi, so'ngra 2025-yilda 5,8 foizgacha biroz sekinlashishi prognoz qilinmoqda. O'rtacha real ish haqining oshishi va pul o'tkazmalarining yuqori darajasi tufayli 2024-yilda iste'molning ishonchli o'sishi saqlanib qolishi kutilmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yilda import o'sishi tezlashishi va o'rta muddatli istiqbolda davom etishi lozim. Prognozlarga ko'ra, pul o'tkazmalarining katta hajmi fonida joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi 2024-yilda 2023-yilga nisbatan qisqaradi.

Nominal YaIMning kutilganidan yuqori bo'lishi va fiskal konsolidatsiya choralari, xususan, energiya subsidiyalari va davlat korxonalarini kreditlashni qisqartirish, shuningdek, daromad yig'ish darajasini oshirish hisobiga 2024-yilda YaIMning umumiy taqchilligi 3,7 foizgacha qisqarishi kutilmoqda.

O'rta muddatli istiqbolda byudjetni yanada konsolidatsiya qilinishi prognoz qilinmoqda. Hukumat tomonidan soliq xarajatlarining qisqartirilishi va xususiylashtirishdan kutilayotgan daromadlarning oshishi natijasida budjet taqchilligi 2025-yilga kelib YaIMning 3 foizigacha pasayadi. 2025-yilda umumiy inflyatsiya 9 foizgacha pasayishi va asta-sekin maqsadli 2027-yildagi 5 foizlik ko'rsatkichga yaqinlashishi kutilmoqda.

Hukumat tashqi qarz olish bo'yicha o'z cheklovlariga rioya qilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, davlat qarzi 2024-yilda YaIMning 35,9 foizigacha va 2025-yilda YaIMning 34,6 foizigacha qisqaradi.

Mehnat migrantlaridan pul o'tkazmalari hajmining oshishi va xususiy iste'molning real o'sishi kambag'allikni yanada qisqartirishga xizmat qiladi. Prognozlarga ko'ra, O'zbekistonda 2024-yilda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar

uchun kambag'allik chegarasi 15,2 foizgacha pasayadi.

Ushbu prognoz uchun salbiy xatarlar Rossiya iqtisodiy ko'rsatkichlarining yomonlashishi, tashqi inflyatsion bosimning kuchayishi, shuningdek, jahon moliya bozorlarida kutilganidan ko'ra qattiqroq sharoitlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakat uchun potensial ijobiy tendensiyalarga oltin va mis uchun jahon narxlarining oshishi (O'zbekiston ushbu turdagi xomashyolarning eksportchisi hisoblanadi), shuningdek, hukumatning tuzilmaviy islohotlari tufayli iqtisodiyot tarmoqlarida unumdorlikning o'sishi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining tezlashishi kiradi.